

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatni va uning tarkibiy  
bo‘linmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash to‘g‘risida**  
**N I Z O M**

**1 bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatni va uning tarkibiy bo‘linmalariga (keyingi o‘rinlarda – jamiyat) yuklangan vazifa va majburiyatlarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo‘yicha talablarni belgilab beradi hamda jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga yagona yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.

2. Quyidagilar jamiyatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashning maqsadi hisoblanadi:

jamiyat faoliyatini kompleks tahlil qilish orqali korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiya va lavozimlarni belgilash;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha samarali profilaktika choralarini ishlab chiqish.

3. Jamiyatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash quyidagilarni ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Dastur (“Yo‘l xaritasi”).

4. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**korrupsiyaviy xavf-xatar** – xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan jamiyat nomidan va (yoki) o‘zlarining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab korrupsiyaviy xattiharakatlarni sodir etish xavfi;

**korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi** – tegishli funksiyalarni bajarish bilan bog‘liq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarning tavsifi, mavjud va qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarlar darajasi, ularni minimallashtirish choralari, jamiyatning funksiyalari va tartib-taomillarining umumiyo‘ ro‘yxati, aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni hamda jamiyat korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash natijalari bo‘yicha tuzilgan hujjat;

**korrupsiyaviy harakatlar** – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlar yo‘lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk, mulkiy va nomulkiy huquqlar, mulkiy tusdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoxud bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlardan undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

**korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** – korrupsiya belgilariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**qoldiq xavf-xatar** – jamiyat tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirishga qaratilgan choralar ko‘rganidan keyin qoladigan xavf-xatar (ya’ni, korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni va joriy etilgan nazoratlarni hisobga olgan holda);

**korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash** – jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan funksiya (vakolat)larni tahlil qilish, ularga xos korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va ushbu xavf-xatarlar darajasini baholash bo‘yicha faoliyat;

**tartib-taomil** – jamiyat funksiyalarini amalga oshirish doirasidagi xodimlar, bo‘linmalar tomonidan bajariladigan yoki bitta natijaga qaratilgan, yoxud ma’lum bir funksiyaning ajralmas elementi hisoblangan, alomatlar bo‘yicha bir guruhgaga birlashtirish mumkin bo‘lgan harakatlar yig‘indisi;

5. Jamiyatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash zaruriyati kelib chiqqanda;

qonunchilik talablari o‘zgarganda;

funksiya va tartib-taomilning amalga oshirilishiga jiddiy ta’sir qiladigan tarzda jamiyatning ichki hujjatlari o‘zgarganda;

jamiyat tashkiliy tuzilmasida, xavf-xatar mavjud funksiyalarning xususiyatlari o‘zgarganda yoki yangi funksiyalar joriy etilganda;

jamiyat funksiyalarining korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa shart-sharoitlarning kelib chiqqanda.

Jamiyat tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan sohalarda quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

jamiyat xodimi tomonidan korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etilganda;

kalender yilining har choraklik davrida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan eng ko‘p shikoyatlar kelib tushganda.

6. Jamiyatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Komplayens xizmati tomonidan jamiyat boshqaruvi yoki Kuzatuv kengashi topshirig‘i asosida baholash o‘tkazishni aniq muddatlari ko‘rsatilgan holda muvofiqlashtirib boriladi. Bunda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jamiyat boshqarmasida bo‘lim va xizmatlari hamda tarkibiy bo‘linmalarda rahbarlaridan tashkil etiladigan Ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

Jamiyat tarkibiy bo‘linmalarining har birida alohida ishchi guruhlar tuziladi va ularning faoliyati Komplayens xizmati tomonidan muvofiqlashtiriladi.

7. Jamiyat va uning tarkibiy bo‘linmalari mazkur Nizomga hamda xalqaro standartlarga asosan o‘zining vazifa va funksiyalarini ularni amalga oshirishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashni amalga oshirish yuzasidan ichki hujjatlarini ishlab chiqishi va ularni zaruratga ko‘ra, muntazam ravishda yangilab borishlari mumkin.

## **2 bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholashni tashkil etish tartibi**

8. Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash jarayoni jamiyatning Boshqaruv raisi – Bosh direktorining (keyingi o'rinda – Bosh direktor) buyrug'i asosida va unda belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

9. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash uchun jamiyatda Ishchi guruhi tuziladi va uning tarkibi jamiyat Bosh direktori tomonidan tasdiqlanadi.

10. Jamiyatning tarkibiy bo'linmalarida alohida ishchi guruhi tuziladi va ularning tarkibi Komplayens xizmati bilan kelishgan holda ushbu tarkibiy bo'linma rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

11. Komplayens xizmati ishchi guruhi faoliyatini muvofiqlashtiradi, jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonini kuzatadi va ular tomonidan mazkur Nizomda nazarda tutilgan tartibga rioya qilinishi ustidan nazorat qiladi.

12. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda Komplayens xizmati quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullarni jalb qilgan holda jamiyatda xavf-xatarlarni baholash jarayonini tashkillashtiradi;

jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan umumiy nazoratni amalga oshiradi;

jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ullar, shuningdek jamiyatning boshqarma va tarkibiy bo'linmalariga mazkur Nizomda ko'zda tutilgan tartibga rioya qilish bo'yicha maslahatlar beradi;

jamiyat Boshqarmasining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzadi va jamiyat Bosh direktori bilan kelishadi;

Boshqarma, tarkibiy bo'linmalarning korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritalaridan kelib chiqqan holda jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasiga umumlashtiradi;

jamiyat Bosh direktori va tarkibiy bo'linma rahbarlariga xavf-xatarlarni baholash natijalari hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini taqdim etadi;

tasdiqlangan xavf-xatarlar xaritasi asosida tarkibiy bo'linmalar tomonidan ishlab chiqilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Dasturlar loyihibarini ko'rib chiqadi va ularni qabul qilish maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

tarkibiy bo'linmalarning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Dasturi asosida jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturini ishlab chiqadi va jamiyat Bosh direktori bilan kelishadi;

jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha choratadbirlarini muvofiqlashtiradi va ularni nazorat qiladi;

jamiyat va uning tarkibiy tuzilmalari tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda noxolis, bir tomonlama va ushbu Nizom talablariga zid ravishda baholangan taqdirda Komplaens xizmati mazkur sohani mustaqil baholashi mumkin;

ushbu Nizomda ko‘zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Komplayens xizmati zarur hollarda Boshqarma hamda tarkibiy bo‘linma rahbarlari, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullardan qo‘srimcha axborot va hujjatlarni talab qilib oladi.

13. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimlar quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

tegishli tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholanishini tashkil qiladi va o’tkazadi;

tegishli tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayoni ustidan nazoratni amalga oshiradi va ushbu jarayonni muvofiqlashtiradi;

tegishli tarkibiy bo‘linmalarning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzadi va ushbu Nizomda ko‘zda tutilgan tartibda kelishilishini ta’minlaydi;

tegishli tarkibiy bo‘linmalarning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Dasturlarini ishlab chiqadi va ushbu Nizomda ko‘zda tutilgan tartibda kelishilishini ta’minlaydi;

tegishli tarkibiy bo‘linmalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarini amalga oshirishni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

ushbu Nizomda ko‘zda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

14. Jamiatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholashda Ishchi guruh quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

jamiatning tarkibiy bo‘linmalarini tomonidan bajariladigan funksiya va tartib-taomillarning tavsifini ushbu Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shaklda tuzadi;

jamiatning funksiyalarini amalga oshirishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarini aniqlaydi;

jamiatning funksiyalarini amalga oshirish tartib-taomillarida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni Nizomda belgilangan tartibda ularning darajasini aniqlaydi;

davlat tashkilotining idoraviy korrupsiyaviy xavf-xatarlarining xaritasini ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shaklda ishlab chiqadi.

15. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash, pastdan tegishli markaziy, tarkibiy bo‘linmalardan tepaga (jamiat Boshqaruvi darajasigacha), mazkur Nizomda ko‘rsatilgan tartib va ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

16. Komplayens xizmati ushbu Nizomga 1-ilovada keltirilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish bo‘yicha jamiatning Boshqarma va tarkibiy bo‘linmalariga ko‘rsatma yuborilishini ta’minlaydi.

Ko‘rsatmada tasdiqlangan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini Komplayens xizmatiga taqdim etish muddatlari ko‘rsatiladi.

17. Jamiatning Boshqarmasi tarkibiy bo‘linmalarining Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tegishli bo‘linmalar tomonidan ishlab chiqilib, Komplaens xizmatiga boshqarma uchun yagona Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish maqsadida kiritiladi.

Boshqarma tarkibiy bo‘linmalarining Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi Komplayens xizmati tomonidan jamiyat Bosh direktori bilan kelishiladi.

18. Jamiyatning tarkibiy bo‘linmalarining Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tegishli bo‘linmaning ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqiladi va tegishli tarkibiy bo‘linma rahbarlari bilan kelishiladi. Tegishli rahbar bilan kelishilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi Komplaens xizmatiga ko‘rib chiqish uchun kiritiladi.

19. Jamiyat Boshqarma, tarkibiy bo‘linmalari tomonidan ishlab chiqilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga oid savollar yuzaga kelgan taqdirda, Komplayens xizmati xodimlari tegishli tarkibiy bo‘linmaga izoh berish yoki xaritaga tuzatish kiritish uchun so‘rov yuboradi. Bunda, so‘rovga javob unda belgilangan muddatda yuborilishi lozim.

20. Komplayens xizmati xodimlari o‘z fikriga tayangan holda Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga o‘zgartirishlar kiritishlari mumkin.

21. Boshqarma, tarkibiy bo‘linmalarning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari asosida Komplayens xizmati Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini ishlab chiqadi.

22. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini tuzish muddati, boshqarma, tarkibiy bo‘linmalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlari xaritalari Komplayens xizmatiga taqdim qilingan sanadan boshlab, 3 (uch) oydan oshmasligi kerak.

23. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi jamiyat Komplayens xizmati taqdimnomasiga asosan jamiyat Bosh direktori tomonidan tasdiqlanadi.

24. Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarning yuqori darajasi bilan ifodalanadigan tartibaomillar uchun Komplayens xizmati va korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ullar ushbu Nizomining 2-ilovasiga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini ishlab chiqadi.

25. Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati Komplayens xizmati va korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas’ullar taqdimnomasiga asosan jamiyat Bosh direktori va tegishli tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

26. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ullar tomonidan tasdiqlangan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasida belgilangan chora-tadbirlarga asosan tarkibiy bo‘linmalarning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Dasturi ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq ishlab chiqilib tasdiqlanadi.

Tarkibiy bo‘linmalarning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Dasturi Komplaens xizmati bilan kelishilgandan so‘ng tegishli tarkibiy bo‘linma rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

27. Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi Boshqarma bo‘linmalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarini inobatga olgan holda Komplayens xizmati tomonidan ishlab chiqiladi hamda jamiyat Bosh direktori tomonidan tasdiqlanadi.

### **3-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni navbatdagি baholashni tashkil etish tartibi**

28. Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi baholanishi doimiy ravishda, 2 (ikki) yilda kamida bir marta jamiyat Bosh direktorining buyrug‘i asosida va buyruqda ko‘rsatilgan muddatlarda o‘tkaziladi.

Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni navbatdagi tarzda baholash muddati 3 oydan oshmasligi lozim.

29. Yillik korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ushbu Nizomning 2-bobida ko‘rsatilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash tartibida amalga oshiriladi.

30. Ishchi guruqlar korrupsiyaviy xavf-xatarlarni navbatdagi tarzda baholashni amalga oshirishda, jamiyat va tarkibiy bo‘linmalarning yangi yoki o‘zgartirish kiritilgan funksiyasining tavsifi to‘g‘risida ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shakldagi ma’lumotnomma asosida tahlil qiladi.

31. Navbatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash boshlanishidan oldin Komplayens xizmati jamiyat va uning tarkibiy bo‘linmalarini rahbarlariga oldingi baholash davriga nisbatan qonunchilikda yoki ichki idoraviy hujjatlarga kiritilgan o‘zgarishlarni aniqlash maqsadida belgilangan shaklda so‘rovnoma yuboradi.

32. Komplayens xizmati Boshqarma va tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari tomonidan to‘ldirilgan So‘rovnomalarni yig‘adi, tahlil qiladi.

33. Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarining xaritasini ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shaklda ishlab chiqadi.

34. Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi asosida jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi ushbu Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda jamiyat Bosh direktori tomonidan tasdiqlanadi.

#### **4-bob. Jamiyatning funksiyalarini amalga oshirishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibi**

35. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash quyidagi tashqi va ichki axborot manbalaridagi ma’lumotlar tahlili asosida amalga oshiriladi:

jamiyatning funksiyalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va jamiyatning ichki hujjatlari (misol tariqasida, tarkibiy bo‘linmalar to‘g‘risida Nizom, xodimlarning lavozim yo‘riqnomalari to‘g‘risidagi nizomlar va h.k.);

tekshiruvlar materiallari (shu bilan birga xizmat tekshiruvi materiallari);

ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha monitoring natijalari;

odob-ahloq komissiyalari yig‘ilishlari natijalari;

manfaatdor tomonlar, davlat xizmati foydalanuvchilari, ekspertlar va boshqa manfaatdor shaxslar fikri, ular o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalari, jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari;

jamiyatning xodimlarining korrupsiyaviy hatti harakatlariga oid murojaatlar;

jamiyat faoliyatidagi huquqbazarliklarga oid statistik ma’lumotlar;

jamiyat xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy harakatlar yoki odob-ahloq qoidalariga rioya qilmaslik to‘g‘risida OAVdagi ma’lumotlar;

ijtimoiy tarmoqlardagi sharhlar va xabarlar;

huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan taqdim etilgan materiallar, shu jumladan ularning ta'sir choralarini, jinoyat ishlari bo'yicha materiallar va boshqalar.

36. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonida jamiyatning har bir funksiyasi va tartib-taomili bo'yicha korrupsiyaviy harakatlarni sodir etilishi imkoniyatlar borligi bo'yicha tahlil qilinishi lozim.

37. Har bir funksiya quyidagi shkala bo'yicha baholanadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarga ko'p moyil bo'lgan funksiya;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarga o'rtacha moyil bo'lgan funksiya;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarga kam moyil bo'lgan funksiya.

38. Komplayens xizmati jamiyatning funksiya va tartib-taomillardagi korrupsiyaviy xavf-xatarni sodir qilishning quyidagi ehtimolli vaziyatlarni tahlil qilishi lozim:

xodim tomonidan va (yoki) yaqin qarindoshlari orqali pora olish, shuningdek xodimning o'z vakolatlarini qonunga xilof ravishda bajarishi munosabati bilan mahsulotni (ish, xizmat) sotib olishda turli tashkilotlardan mahsulotlarni xarid qilishda narxlarni sun'iy oshirish va asossiz imtiyozlar olish;

davlat xizmatlaridan foydalanishda sun'iy to'siqlarni yaratish;

o'z vaqtida qaror qabul qilmaslik, favqulodda tartibda qaror qabul qilish, jismoniy yoki yuridik shaxslarning manfaatlarini ko'zlab mavjud talablarni chetlab o'tish;

hujjatlar, elektron ma'lumotlar bazalariga bila turib yolg'on ma'lumotlarning kiritilishi;

xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi, mahalliychilik, homiylik, urug'-aymoqchilik kabi holatlar mavjudligi;

Komplayens xizmati vaziyatdan kelib chiqqan holda jamiyatning funksiya va tartib-taomillardagi korrupsiyaviy xavf-xatarni sodir qilishning boshqa ehtimolli vaziyatlarni nazarda tutishi mumkin.

39. Jamiyat zimmasiga yangi vazifa va funksiyalar yuklatilgan taqdirda mazkur vazifa va funkoyalarni amalga oshiruvchi tegishli tarkibiy bo'linma tomonidan bir oy muddatda Komplayens xizmatiga ushbu Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shaklda jamiyatning yangi yoki o'zgartirish kiritilgan funksiyasining tavsifini to'liq va o'z vaqtida taqdim qilinishi lozim.

40. Jamiyatning funksiyalarini amalga oshirishdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni navbatdagi baholashda faqat korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori so'ng o'rta bo'lgan tartib-taomillar uchun amalga oshiriladi.

Jamiyatda etarli resurslar mavjud bo'lganda (bo'sh xodimlar, moliyaviy, moddiy va texnik resurslar) korrupsiyaviy xavf-xatari pastroq bo'lgan tartib-taomilni amalga oshirish natijasida kelib chiqadigan korrupsiyaviy xavf-xatarni qo'shimcha ravishda aniqlashi va baholashi mumkin.

41. Jamiyat o'z funksiyalarini va ularni amalga oshirish tartib-taomillarining korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini quyidagi o'chovda belgilaydi:

past;  
o‘rta;  
yuqori.

42. Komplayens xizmati ushbu Nizomning 5-ilovasiga muvofiq korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriroq bo‘lgan jamiyatning lavozimlari ro‘yxatini shakllantiradi.

43. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning ehtimollik darajasi ushbu Nizomning 6-ilovasiga keltirilgan mezonalar asosida baholanadi.

### **5 bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarning darajasini minimallashtirish choralari**

44. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish choralari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

normativ-huquqiy hujjatlar loyihamalarini ishlab chiqish;  
amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish (o‘qitish, profilaktik suhbat va boshqalar);  
tekshiruv tadbirdarini amalga oshirish;  
dasturiy ta’milot loyihasini ishlab chiqish va boshqalar.

45. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini belgilashda:

har bir chora jamiyat xodimlari o‘z maqsadlari, yakuniy natijani va ma’lum korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirishi to‘g‘ri tushunish uchun aniq va to‘g‘ri shakllantirish;

har bir chora uchun uni amalga oshirish muddati yoki davriyligi belgilanishi, uni amalga oshirish uchun mas’ul shaxslar, amalga oshirilishini monitoring qilish va samaradorligini baholash mexanizmlari aniqlash lozim.

46. Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish chora-tadbirlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

jamiyatning funksiyalari va tartib-taomillarining aniq tartibga solish;

xizmatlar ko‘rsatish jarayonini soddalashtirish, asossiz cheklovlarini, ortiqcha ma’muriy tartib-taomillarni bekor qilish, byurokratik tartibga solish mexanizmlarini yo‘q qilish, ixtiyoriy vakolatlar sonini kamaytirish, taqdim etilgan hujjatlar sonini va qarorlarni qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

davlat xaridlarini amalga oshirishda jamiyat xodimlari va etkazib beruvchilar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani maksimal darajada cheklash, elektron axborot almashish tizimini joriy etish;

jamiyat xodimlarining faoliyatni amalga oshirishda axborot texnologiyalarini qo‘llash, ish jarayonlarini avtomatlashdirish hamda ularning xatti-harakatlarini nazorat qilish uchun videokuzatuv va audioyozuv vositalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish;

rasmiy veb-saytlarda va boshqa ommaviy axborot vositalarida amalga oshirilayotgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni joylashtirish orqali tarqatish;

fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro munosabat shakllarini kengaytirish, birinchi navbatda, jamiyat va uning tarkibiy

bo‘linmalarida korrupsiya to‘g‘risida xabar bergenlik uchun rag‘batlantirish choralarini ko‘rish;

jamiyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirish, profilaktik suhbatlar o‘tkazish, ishonch telefonlari va aloqa kanallari haqida targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;

mexanizmni takomillashtirish, aniq mezonlarni belgilash va nomzodlarni tanlashda shaffoflikni ta’minalash, korrupsiyaviy xavf-xatari yuqoriq bo‘lgan lavozimlarni egallab turgan jamiyat va uning tarkibiy bo‘linmalari xodimlarini majburiy almashtirish tartibini belgilash;

yakka tartibda qaror qabul qilish holatlarini kamaytirish, shuningdek jamiyat va uning tarkibiy bo‘linmalari rahbar xodimlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlar natijalari to‘g‘risida hisobot berishning qo‘sishimcha shakllarini yaratish;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha ichki hujjatlarga doimiy va so‘zsiz rivoja etilishini ta’minalash.

Jamiyat va uning tarkibiy bo‘linmalari ushbu bandda ko‘rsatib o‘tilgan korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlardan tashqari boshqa chora-tadbirlarni zaruratga ko‘ra, Komplayens xizmati bilan kelishib amalga oshirishi mumkin.

47. Komplayens xizmati tomonidan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari o‘z ichiga qamrab olgan jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi ushbu Nizomning 6-ilovasiga muvofiq tuziladi.

48. Jamiyatdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish ustidan nazoratni Komplayens xizmati amalga oshiriladi.

## **6 bob. Yakuniy qoidalar**

49. Zarurat bo‘lganda, jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturiga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritish masalalari Komplayens xizmatining taklifiga binoan jamiyat Bosh direktori tomonidan ko‘rib chiqiladi.

50. Jamiyat tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish Komplayens xizmati xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

51. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlarning bajarilmasligi yoki etarli darajada bajarilmaganligi mas’ul shaxslarning qonunchilikda belgilangan javobgarligiga sabab bo‘ladi.